

**"KAPITALBANK"**  
**AKSIYATORLIK TIJORAT BANKI**  
**26 iyun 2023 yil.**

**Bank aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi o'tkazilishini e'lon qiladi**

**Hurmatli aksiyadorlar!**

"Kapitalbank" ATB aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi Toshkent sh., Maxtumquli ko'chasi, 1. "Kapitalbank" ATB Yashnobod filiali binosida bo'lib o'tadi.

E-mail: info@kapitalbank.uz, veb-sayt: www.kapitalbank.uz.

Ro'yxatga olish boshlanishi soat 10:30 da.

Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishining boshlanishi – soat 11:00.

"Kapitalbank" ATB aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar ro'yxati bank aksiyadorlarining **2023-yil 20-iyun** holatidagi reestriga muvofiq tuziladi.

**Kun tartibi:**

1. "Kapitalbank" ATB Kuzatuv kengashi raisining "Kapitalbank" ATB Kuzatuv kengashining 2022 yildagi faoliyati yakunlari to'g'risidagi hisobotini ko'rib chiqish va "Kapitalbank" ATB Kuzatuv kengashining 2022 yilda qabul qilingan qarorlarni tasdiqlash to'g'risida.
2. Bank Boshqaruvi raisining "Kapitalbank" ATBning 2022 yildagi moliyaviy-xo'jalik faoliyati yakunlari to'g'risidagi hisobotini tasdiqlash to'g'risida.
3. "Kapitalbank" ATBning 2022 yil uchun moliyaviy hisobotining ishonchliligi to'g'risidagi auditorlik xulosasini tasdiqlash to'g'risida.
4. "Kapitalbank" ATBning 2022 yil yakunlari bo'yicha yillik hisoboti, buxgalteriya balansi va foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotini tasdiqlash to'g'risida.
5. "Kapitalbank" ATBning 2022 yildagi moliyaviy-xo'jalik faoliyati yakunlari bo'yicha sof foyda taqsimotini tasdiqlash to'g'risida.
6. 2023-moliya yili uchun auditorlik tashkilotini tasdiqlash va auditorlik xizmatlari uchun to'lovning maksimal miqdorini belgilash.
7. 2022-yil uchun ko'rsatilgan xayriya, beminnat va homiylik yordami to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rib chiqish hamda xayriya, beminnat va homiylik yordami miqdorini belgilash to'g'risida.
8. "Kapitalbank" ATB Ustaviga o'zgarish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida.
9. "Kapitalbank" ATB boshqaruv organlari to'g'risidagi nizomni yangi tahrirda tasdiqlash haqida.
10. "Kapitalbank" ATB tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash to'g'risida.
11. "Kapitalbank" ATB Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash to'g'risida.

**Izoh:** Aksiyadorning vakili aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida vakil to'g'risidagi ma'lumotlar (ismi yoki lavozimi, yashash joyi yoki joylashgan joyi, pasport ma'lumotlari) ko'rsatilgan yozma shaklda tuzilgan ishonchnoma asosida ish yuritadi. Jismoniy shaxs nomidan ovoz berish uchun ishonchnoma notarial tasdiqlangan bo'lishi kerak. Yuridik shaxs nomidan ovoz berish uchun ishonchnoma qonun hujjatlarida belgilangan tartibda beriladi.